

“KELAJAK SOATI” DARSINING 3-4-5-6-7 YOSHLI BOLALAR UCHUN MASHG'ULOT SSENARIYSI

1-mavzu: “Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

Dars maqsadi

1-sentabr — O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni, Vatan, O'zbekiston, birlik, ahillik va davlat ramzlari haqida 3–6 yoshli bolalarda dastlabki sodda tasavvurlarni shakllantirish.

Bolalarga “Vatan” tushunchasini murakkab ta'riflar orqali emas, balki ularning kundalik hayotiga yaqin bo'lgan uy, oila, bog'cha, tabiat va atrofdagi insonlar orqali tushuntirish.

Mashg'ulot davomida Dinno bosh qahramon sifatida bolalar bilan birga javob izlaydi. Dastlab “Mening uyim qayerda?” ijodiy kontenti orqali bolalar har bir jonivorning o'z uyi borligini, insonlarning ham oilasi bilan yashaydigan uyi borligini anglaydilar. Keyin esa O'zbekiston hammamiz yashaydigan “katta uy” — Vatan ekanligi haqidagi sodda tushunchaga olib kelinadi. Ushbu ijodiy kontentda aynan O'zbekiston “hammamizning katta uyimiz” sifatida ochib berilgan.

Mashg'ulotning keyingi bosqichida “Bizni nima birlashtiradi?” siyosiy-ijtimoiy kontenti orqali bolalar bog'chadagi oddiy tartib-qoidalarini eslaydilar va O'zbekistonda ham bolalar va kattalar amal qiladigan umumiy qoidalar borligini sodda hayotiy misollar yordamida tushunib boradilar. Shuningdek, O'zbekistonning bayrog'i, gerbi va madhiyasi bilan tanishadilar.

1. Bolalarda uy va Vatan tushunchalarini hissiy, obrazli va hayotiy misollar orqali shakllantirish.
2. O'zbekistonni bolaga o'zi yashaydigan, yaxshi ko'radigan va asraydigan katta uy — Vatan sifatida tushuntirish.
3. Bolalarni O'zbekistonning davlat ramzlari — bayroq, gerb va madhiya bilan yoshiga mos shaklda tanishtirish.
4. Bolalarda o'z yashayotgan joyiga va tabiatga g'amxo'r munosabatni shakllantirish.

Asosiy g'oyalar:

Bola dastlab o'z uyini taniydi. Uy — uning oilasi bilan birga yashaydigan joy.

Qushning uyasi, chumolining ini, asalarining uyasi bo'lgani kabi, insonlarning ham o'z uyi mavjud.

Shaharlarimiz, qishloqlarimiz, bog'larimiz, tog'larimiz, dalalarimiz va unda yashaydigan insonlar — barchasi bizning katta uyimizning bir qismidir.

Bu katta uyning nomi — O'zbekiston.

O'zbekiston — bizning Vatanimiz.

Vatanimizni yaxshi ko'rish — uni toza saqlash, tabiatni asrash, boshqalarga mehribon bo'lish va yaxshi ishlar qilishdan boshlanadi.

Bog'chamizda birga o'ynash uchun qoidalar bo'lgani kabi, katta uyimizda ham bolalar va kattalar amal qiladigan qoidalar mavjud.

O'zbekistonimizni tanitadigan bayrog'i, gerbi va madhiyasi bor.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

- Bola “uy” va “Vatan” tushunchalarini sodda shaklda tushuna boshlaydi.
 - O‘zbekistonni o‘z Vatani sifatida taniydi.
 - “O‘zbekiston — hammamizning katta uyimiz” degan fikrni ayta oladi.
 - O‘zbekiston bayrog‘i va gerbini boshqa tasvirlar orasidan taniy boshlaydi.
 - Bayroq, gerb va madhiya davlatimizning ramzlari ekanligi haqida dastlabki tushunchaga ega bo‘ladi.
 - O‘z oilasi, bog‘chasi va yashayotgan joyiga mehr hissi kuchayadi.
 - O‘z Vatanga nisbatan iliq munosabat shakllanadi.
 - Tabiat va jonivorlarga g‘amxo‘rlik qilish istagi paydo bo‘ladi.
 - Davlat ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishning dastlabki ko‘nikmalari shakllanadi.
 - “Men ham yaxshi ish qila olaman” degan ishonch paydo bo‘ladi.
 - chiqindini qutiga tashlash;
 - o‘yinchoqlarni joyiga qo‘yish;
 - navbat kutish;
 - do‘stini itarmaslik;
 - salom berish;
 - gullarni va daraxtlarni asrash
- kabi oddiy ijobiy xatti-harakatlarni kundalik hayot bilan bog‘lay boshlaydi.
- Guruhda o‘zaro yordam, mehr va ahillik muhiti mustahkamlanadi.
 - Bola birgalikda yashash va o‘ynash uchun qoidalarga amal qilish zarurligini tushunadi.
 - Tarbiyachi va bola o‘rtasida Vatan, mehr, tartib va yaxshi xulq haqida sodda muloqot yuzaga keladi.
 - Bolada ilk ijtimoiy va fuqarolik tasavvurlari shakllanishiga asos yaratiladi.
- Mazkur mashg‘ulot bolalarning bir nechta rivojlanish sohalarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi.

Masalan:

- bola uy, tabiat va Vatan haqida fikr bildiradi — nutq va muloqot;
- Dino ishtirokidagi videolarni tomosha qiladi va taassurotini aytadi — ijodiy rivojlanish;
- davlat ramzlarini rasmlar orqali taniydi — atrof-olam bilan tanishish;
- “to‘g‘ri–noto‘g‘ri” harakatlarni ajratadi — ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- harakatli o‘yinlarda qatnashadi — jismoniy rivojlanish.

Dars davomiyligi: 25–30 daqiqa

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli:

Bilim beruvchi sodda suhbat, savol-javob, Dino ishtirokidagi qisqa videokontentlar, ko'rgazmali rasmlar, harakatli o'yin va interaktiv topshiriqlardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to'plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- “Mening uyim qayerda?” ijodiy videokontenti;
- “Bizni nima birlashtiradi?” siyosiy-ijtimoiy videokontenti;
- O'zbekiston bayrog'i tasviri;
- O'zbekiston gerbi tasviri;
- uy, daraxt, qush, gul, tabiat tasvirlari;
- “yaxshi ish — noto'g'ri ish” kartochkalari;
- interaktiv topshiriqlar;
- quvnoq va sokin fon musiqalari.

Dars tuzilishi

1-qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi — bolalarda mavzuga qiziqish uyg'otish va ularning kundalik hayotida yaxshi tanish bo'lgan “uy” tushunchasi orqali suhbatga faol jalb etish.

Bolalarning keyingi faoliyatiga bo'lgan qiziqishi Dino obrazining savollari va “Mening uyim qayerda?” ijodiy videokontentini tomosha qilishga tayyorlash asosida shakllantiriladi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda bolalar mashg'ulotning asosiy mazmunini asta-sekin tushunishga yo'naltiriladi.

Mazmun quyidagi ketma-ketlik asosida beriladi:

Uy, katta uy, O'zbekiston, Vatan, birga yashash, qoidalar, davlat ramzlari.

Shu maqsadda “Mening uyim qayerda?” ijodiy kontenti va undan keyin “Bizni nima birlashtiradi?” siyosiy-ijtimoiy kontenti namoyish etiladi.

Ikki videokontent orasida albatta tarbiyachi bilan savol-javob va kichik interaktiv faoliyat tashkil etiladi.

3-qism. Yakuniy

Mashg'ulot davomida olingan tushunchalarni sodda savollar, tasvirlar va harakatlar yordamida umumlashtirish.

1-HAFTA DARS SSENARIYSI

1-mavzu: “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!”

KIRISH. SALOMLASHUV VA HISSIY MUHIT YARATISH

3–4 daqiqa

(Bolalar yarim doira shaklida joylashadilar. Fonda sokin, quvnoq musiqa yangraydi. Tarbiyachi bolalarga tabassum bilan yaqinlashadi.)

Tarbiyachi: Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Bugun hammangizni ko‘rib turganimdan juda xursandman. Qani, avval yonimizdagi do‘stimizga qarab chiroyli tabassum qilamiz.

(Bolalar bir-biriga qarab tabassum qiladilar.)

Tarbiyachi: Endi qo‘llarimizni ochamiz va birgalikda aytamiz:

“Men xursandman!”

Bolalar: Men xursandman!

Tarbiyachi: “Men bog‘chamni yaxshi ko‘raman!”

Bolalar: Men bog‘chamni yaxshi ko‘raman!

Tarbiyachi: Barakalla! Bolajonlar, bugun biz juda chiroyli va muhim mavzu haqida gaplashamiz. Bugun biz uyimiz, Vatanimiz, O‘zbekistonimiz haqida suhbatlashamiz. 1-sentabr kuni yurtimizda katta bayram bo‘ladi. Bu bayram — Mustaqillik bayrami. Lekin bugun men sizlarga “Mustaqillik nima?” deb uzun-uzun tushuntirmayman. Uni birgalikda topamiz, ko‘ramiz, o‘ynaymiz va his qilamiz.

2. “MENING UYIM” MOTIVATSION SUHBATI

3 daqiqa

Tarbiyachi: Bolajonlar, hammangizning o‘z uyingiz bormi?

Bolalar: Ha-a-a!

Tarbiyachi: Uyga borganingizda sizni kimlar kutadi?

(Bolalarning erkin javoblari tinglanadi: onam, dadam, buvim, bobom, opam va boshqalar.)

Tarbiyachi: Barakalla. Demak, uy — biz oilamiz bilan yashaydigan, dam oladigan, o‘zimizni yaxshi his qiladigan joy ekan. Lekin... (Tarbiyachi qiziqib atrofga qaraydi.) Qushlarning ham uyi bormi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Chumolining-chi? Asalarining-chi? (Javoblar tinglanadi.)

Tarbiyachi: Men ham qiziqib qoldim. Qushning uyi qayerda? Chumolining uyi qayerda? Asalarining uyi qayerda? Yana... bizning uyimizdan ham kattaroq uy bo‘lishi mumkinmi? (Pauza.) Bugun bu savollarga javob topishga bizga bir qahramon yordam beradi. U juda qiziquvchan, ko‘p savol beradi va javoblarni bolalar bilan birga topishni yaxshi ko‘radi. Uning ismi...(Ekranida yoki kartochkada Dinno rasmi paydo bo‘ladi.) **DINO!**

Tarbiyachi: Bolajonlar, Dino bilan tanishishga tayyormisiz?

Bolalar: Ha-a-a!

Tarbiyachi: Unda diqqat bilan tomosha qilamiz. Dino bugun qanday savolga javob izlayotgan ekan?

3. IJODIY VIDEOKONTENT



“MENING UYIM QAYERDA?”

3–4 daqiqa

(Ijodiy videokontent namoyish etiladi.)

Videoda Dino avval Qushcha, Chumoli va Asalarining uylarini izlaydi, keyin bolalarning oilaviy uyidan “katta uy” tushunchasiga o'tib, O'zbekiston hammamizning Vatanimiz ekanini bolalarga tushuntiradi.

4. “DINO NIMANI TOPDI?” MUHOKAMASI

3–4 daqiqa

(Video to'xtatiladi. Tarbiyachi bir zum bolalarga qarab turadi.)

Tarbiyachi: Bolajonlar, Dino sizlarga yoqdimi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: U nimani izlayotgan edi? (Bolalar javobi tinglanadi.) Qushchaning uyini topdimi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Qayerda ekan?

Bolalar: Daraxtdagi uyada!

Tarbiyachi: Chumolining uyichi?

Bolalar: Yer ostida!

Tarbiyachi: Asalarining-chi?

Bolalar: Uyasida!

Tarbiyachi: Barakalla! Keyin Dino bolalarning uyini ham topdi. Biz kimlar bilan yashaymiz?

Bolalar: Oilamiz bilan!

Tarbiyachi: Ammo Dino bundan ham kattaroq uy borligini bildi. Uning nomi nima?

Bolalar: O'zbekiston!

Tarbiyachi: Juda to'g'ri. Demak: Uyimiz — oilamiz bilan yashaydigan joy. O'zbekiston esa hammamiz yashaydigan katta uyimiz. Katta uyimizni biz Vatan deb ataymiz. Qani, sekin aytamiz: Vatan.

Bolalar: Vatan.

Tarbiyachi: Endi birgalikda:

O'zbekiston — mening Vatanim!

Bolalar: O'zbekiston — mening Vatanim!

5. HAKAKATLI O'YIN “KIMNING UYI QAYERDA?”

3 daqiqa

O'yin maqsadi: Bolaning ijodiy videoda ko'rgan ma'lumotini harakat orqali mustahkamlash. Tarbiyachi xonaning to'rt joyiga yirik tasvirlarni joylashtiradi:

qush uyasi;

chumoli ini;

asalari uyasi;

oilaviy uy.

Tarbiyachi: Bolajonlar, endi Dino kabi izlanuvchi bo'lamiz! Men bir qahramonni aytaman, siz uning uyini topasiz. Musiqa yangraganda yuramiz. Musiqa to'xtaganda aytilgan uyni topamiz.

(Musiqa.)

Tarbiyachi: Qushcha! (Bolalar qush uyasi tomon boradilar.)

Tarbiyachi: Chumoli! (Chumoli ini tomon.)

Tarbiyachi: Asalari! (Asalari uyasi tomon.)

Tarbiyachi: Bolalar! (Oilaviy uy tomon.) So'ng tarbiyachi O'zbekiston xaritasini ko'rsatadi.

Tarbiyachi: Endi eng katta savol: Hammamizning katta uyimiz qayerda?

Bolalar: O'zbekistonda!

Tarbiyachi: Barakalla!

6. “VATANIMIZGA MEHR” SUHBATI

3–4 daqiqa

Tarbiyachi: Bolajonlar, sizlar o'z uyingizni yaxshi ko'rasizlarmi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Yaxshi ko'rgan Uyimizni toza saqlaymizmi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: O'yinchoqlarimizni sindiramizmi?

Bolalar: Yo'q!

Tarbiyachi: Gullarni sindiramizmi?

Bolalar: Yo'q!

Tarbiyachi: Demak, yaxshi ko'rgan narsamizni asrar ekanmiz. O'zbekiston ham katta uyimiz bo'lsa, uni ham asraymizmi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Qanday qilib? Yerd qog'oz ko'rsak...

Bolalar: Qutiga tashlaymiz!

Tarbiyachi: Gul ko'rsak...

Bolalar: Asraymiz!

Tarbiyachi: Qushchani ko'rsak...

Bolalar: Qo'rqitmaymiz!

Tarbiyachi: Barakalla. Sizlar hali kichkina bo'lishingiz mumkin. Lekin yaxshi ish qilish uchun katta bo'lish shart emas.

7. DIDAKTIK O'YIN

“VATANIMGA FOYDALI — FOYDALI EMAS”

3 daqiqa

(Tarbiyachi ikkita belgi tayyorlaydi:)

👍 — yaxshi ish

👎 — noto'g'ri ish

Yoki bolalar harakat bilan javob beradilar: yaxshi bo'lsa — chapak, noto'g'ri bo'lsa — qo'llarni “yo'q” shaklida silkish.

Tarbiyachi: Men aytaman, sizlar baholaysizlar. “Gulga suv quydim.” (*Chapak.*) “chiqindini yerga tashladim.”

Bolalar: Yo'q!

“Do'stim yiqildi, unga yordam berdim.” (*Chapak.*)

“Daraxtning shoxini sindirdim.”

Bolalar: Yo'q!

“O'yinchoqlarimni joyiga qo'ydim.” (*Chapak.*)

“Qushni qo'rqitdim.”

Bolalar: Yo'q!

Tarbiyachi: Ajoyib! Mana shunday kichik yaxshi ishlar ham Vatanimizga mehr ko'rsatishdir.

8. QOIDALAR MAVZUSIGA TABIIY O'TISH

2–3 daqiqa

Tarbiyachi: Bolajonlar, biz Vatanimizni asraymiz dedik. Lekin katta uyimizda juda ko'p odamlar birga yashaydi. Agar hamma xohlagan ishini qilaversa nima bo'ladi? Masalan, bog'chada hamma bitta o'yinchoqni tortib olsa-chi? (*Bolalar reaksiyasi.*)

Tarbiyachi: Yaxshi bo'ladimi?

Bolalar: Yo'q!

Tarbiyachi: Bir-birimizni itsak-chi?

Bolalar: Yo'q!

Tarbiyachi: Unda nima qilamiz?

Bolalar: Navbat kutamiz!

Tarbiyachi: O'ynab bo'lgach-chi?

Bolalar: Joyiga qo'yamiz!

Tarbiyachi: Bog'chaga kelganimizda...

Bolalar: Salom beramiz!

Tarbiyachi: Demak, bog'chamizda birga yaxshi yashash va o'ynash uchun qoidalar bor.

Endi bir o'ylab ko'ring: Hammamizning katta uyimiz — O'zbekistonda ham qoidalar bormi? *(Pauza.)*

Dino ham bunga qiziqib qolibdi. Kelinglar, bu safar Dino nimalarni topishini ko'ramiz.

9. SIYOSIY-IJTIMOIIY VIDEOKONTENT “BIZNI NIMA BIRLASHTIRADI?”

3 daqiqa

Videokontent namoyish etiladi.

Mazkur kontentda bog'chadagi tanish qoidalardan bolalar va kattalar amal qiladigan umumiy qoidalar o'tiladi; so'ng O'zbekistonning bayrog'i, gerbi va madhiyasi davlat ramzlari sifatida tanishtiriladi.

10. SIYOSIY KONTENTDAN KEYINGI “TOPDIM!” SUHBATI

3–4 daqiqa

Tarbiyachi: Bolajonlar, Dino yana nimani bilib oldi? Bog'chamizda qoidalar bormi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Katta uyimiz — O'zbekistonda ham qoidalar bormi?

Bolalar: Ha!

Tarbiyachi: Mashinalar qizil chiroqda nima qiladi?

Bolalar: To'xtaydi!

Tarbiyachi: Yashil chiroqda-chi?

Bolalar: Yuradi!

Tarbiyachi: Chiqindini ko'chaga tashlaymizmi?

Bolalar: Yo'q!

Tarbiyachi: Bir-birimizni xafa qilamizmi?

Bolalar: Yo'q!

Tarbiyachi: Daraxt va gullarni-chi?

Bolalar: Asraymiz!

Tarbiyachi: Demak, qoidalar amal qilsak, hammamizga yaxshi bo'lar ekan. Bog'chamiz ham tinch bo'ladi. Ko'chamiz ham ozoda bo'ladi. Katta uyimiz — O'zbekistonimiz ham chiroyli bo'ladi.

11. HARAKATLI O'YIN

“QIZIL —TO'XTA, YASHIL — YURI!”

2–3 daqiqa

O'yin maqsadi: Siyosiy-ijtimoiy kontentdagi qoidalarni bolaning jismoniy harakati orqali mustahkamlash.

Tarbiyachi qizil va yashil rangli kartochkalarni ushlab turadi.

Tarbiyachi: Endi hammamiz kichkina piyodamiz. Yashil rangni ko'rsam — yuramiz. Qizil rangni ko'rsam — to'xtaymiz. Tayyormisiz?

Bolalar: Ha!

(O'yin 3–4 marta takrorlanadi.) Keyin tarbiyachi ataylab tez-tez ranglarni almashtiradi.

Tarbiyachi: Voy, sizlar qoidalarni juda yaxshi bilarkansizlar!

12. DAVLAT RAMZLARI BILAN INTERAKTIV TANISHUV

3–4 daqiqa

(Tarbiyachi uchta yirik tasvir tayyorlaydi: bayroq, gerb va musiqa belgisi.)

Tarbiyachi: Dino bizga yana uchta muhim narsani ko'rsatdi. Qani, eslaymiz. (Bayroqni ko'rsatadi.) Bu nima?

Bolalar: Bayroq!

Tarbiyachi: To'g'ri. Bu — O'zbekiston bayrog'i. (Gerb.) Bu-chi?

Bolalar: Gerb!

Tarbiyachi: Bu — O'zbekiston gerbi. Yana davlatimizning madhiyasi bor. Bayroq, gerb va madhiya davlatimizning ramzlari. Bu tushuncha siyosiy kontentning o'zida ham shu ketma-ketlikda berilgan.

Tarbiyachi: Bayrog'imizni ko'rganimizda qaysi yurtni eslaymiz?

Bolalar: O'zbekistonni!

Tarbiyachi: Madhiyamiz yangraganda hurmat bilan tik turamiz. (Bolalarga tik turish holati ko'rsatiladi.)

13. DIDAKTIK O'YIN

“RAMZNI TOP!”

2–3 daqiqa

Tarbiyachi stol ustiga bir nechta rasmlar qo'yadi:

O'zbekiston bayrog'i;

gerb;

daraxt;

koptok;

uy;

gul.

Tarbiyachi: Bolajonlar, O'zbekistonimizning davlat ramzlarini kim topadi? Birinchi topshiriq: Bayroqni toping! (Bola topadi.)

Tarbiyachi: Barakalla! Endi: Gerbni toping! (Bola topadi.) Keyin barcha bolalarga:

Tarbiyachi: Bayrog'imizni ko'rsak nima deymiz?

Bolalar: O'zbekiston!

14. “MEN HAM YAXSHI ISH QILA OLAMAN” MASHQI

2–3 daqiqa

(Bu qism darsning eng muhim tarbiyaviy mustahkamlash bosqichi bo'ladi. Bolalar aylana bo'lib turadilar. Tarbiyachi yumshoq koptok yoki yurakchani bir bolaga uzatadi.)

Tarbiyachi: Hozir Dino bizdan bitta savol so'rayapti:

“Sen Vatanning uchun qanday yaxshi ish qila olasan?”

Men boshlayman: “Men gullarni asrayman.”

(Yurakcha keyingi bolaga beriladi.)

Bola: “Men axlatni qutiga tashlayman.”

Keyingi bola: “Men do'stinga yordam beraman.”

Yana biri: “Men o'yinchoqlarni yig'aman.”

(Tarbiyachi kerak bo'lsa bolaga variantlarni eslatadi)

Tarbiyachi: Barakalla! Ko'rdingizmi? Vatanimizni sevish faqat gapirish emas ekan. Yaxshi ish qilish ham Vatanimizni sevish ekan.

15. YAKUNIY QISM

3 daqiqa

(Bolalar yarim doira shaklida o'tiradilar yoki turadilar. Tarbiyachi Dinno tasvirini yoniga qo'yadi.)

Tarbiyachi: Bolajonlar, bugun biz Dino bilan juda ko'p narsalarni topdik. Avval nimani izladik?

Bolalar: Uylarni!

Tarbiyachi: Har bir jonivorning...

Bolalar: O'z uyi bor!

Tarbiyachi: Bizning oilamiz bilan yashaydigan...

Bolalar: Uyimiz bor!

Tarbiyachi: Hammamizning katta uyimiz nima?

Bolalar: O'zbekiston!

Tarbiyachi: O'zbekiston — bizning...

Bolalar: Vatanimiz!

Tarbiyachi: Katta uyimizda yaxshi yashash uchun nimaga amal qilamiz?

Bolalar: Qoidalarga!

Tarbiyachi: Davlatimizning qanday ramzlari bor?

Bolalar: bayrog'i, gerbi, madhiyasi!

Tarbiyachi: Vatanimizni qanday asraymiz? (Bolalardan 3–4 javob olinadi.)

16. YAKUNIY HISSIY MASHQ

“YURAGIMDA — O‘ZBEKISTON”

(Bolalar o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yadilar.)

Tarbiyachi: Endi ko'zlarimizni bir zum yumamiz. Uyimizni eslaymiz. Onamizni, otamizni eslaymiz. Bog'chamizni eslaymiz. Do'stlarimizni eslaymiz. Daraxtlarimizni, gullarimizni eslaymiz. Mana shu aziz narsalarimiz yashaydigan katta uyimiz — O'zbekiston. *(Bolalar ko'zlarini ochadilar.)*

Tarbiyachi: Endi hammamiz birgalikda aytamiz:

Barcha bolalar: Men O'zbekiston farzandiman! O'zbekiston — mening Vatanim! Men Vatanimni yaxshi ko'raman! Men Vatanimni asrayman! Biz birga ahil yashaymiz!

Tarbiyachi: Barakalla, bolajonlar! Bugun sizlar Dino bilan birgalikda katta bir sirni topdingiz: Vatan — bu uzoqdagi bir joy emas. Vatan — biz yashaydigan, va asraydigan katta uyimiz.

1-sentabr — Mustaqillik bayramimiz muborak bo'lsin! *(Bayramona, quvnoq musiqa yangraydi. Bolalar kichik O'zbekiston bayroqchalarini silkitishlari yoki aylana bo'lib yengil harakat bajarishlari mumkin.)*

Tarbiyachi tomonidan bola va oila a'zolariga beriladigan topshiriq

Mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalarga mavzuni oila davrasida davom ettirish uchun yoshiga mos topshiriqlar beradi. Ota-onalarga topshiriq mazmuni qisqacha tushuntiriladi va bolani suhbatga jalb etish tavsiya etiladi.

3–4 yosh: Ota-ona bola bilan “Bizning oilamizda kimlar yashaydi?” mavzusida suhbatlashadi. Bola keyingi mashg'ulotda oila a'zolarini nomlaydi va “Mening kichik uyim — oilam” jumlasini takrorlaydi.

5–6 yosh: Ota-ona bola bilan kichik uy — oila va katta uy — Vatan haqida suhbatlashadi. Bola keyingi mashg'ulotda oilada eshitganlarini qisqacha aytib beradi va “Kichik uyim — oilam, katta uyim — O'zbekiston” jumlasini mustaqil aytadi.

6–7 yosh: Ota-ona bola bilan oilaning ahilligi, mehr-oqibati va Vatanga daxldorlik haqida suhbatlashadi. Bola keyingi mashg'ulotda oiladagi suhbat mazmunini qisqacha bayon qiladi hamda “Nega kichik uyimiz mustahkam bo'lsa, katta uyimiz ham mustahkam bo'ladi?” savoliga o'z fikrini bildiradi.

Tarbiyachi uchun metodik tavsiyalar

“Kelajak soati” mashg'ulotini tashkil etishda umumiy g'oya va mashg'ulot ketma-ketligi saqlangan holda, topshiriqlar bolalarning yoshi, qiziqishi, tushunish darajasi hamda individual imkoniyatlariga moslashtirilishi tavsiya etiladi.

3–4 yoshli bolalarda ko'proq ko'rgazmalilik, qisqa savollar, takrorlash, harakatli o'yinlar, bo'yash va yopishtirish kabi sodda faoliyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

4–5 yoshli bolalarda savol-javob, sodda sabab–oqibat bog'lanishlari, rasm chizish, tanlash va kichik ijodiy topshiriqlar kengaytiriladi.

5–6 yoshli bolalarda mustaqil fikr bildirish, “Nega?”, “Qanday?” savollariga javob berish, kasblar va kelajak haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, mustaqil rasm, kollaj va kichik ijodiy ishlarni bajarishga ko'proq imkon beriladi.

Videokontentlar namoyishidan oldin tarbiyachi bolalarda qiziqish uyg'otishi, namoyishdan keyin esa mazmunni savol-javob, o'yin yoki amaliy mashq orqali albatta mustahkamlashi lozim.

6-7 yoshli bolalarda mustaqil fikrlash, “Nega?”, “Qanday?”, “Nima uchun?” kabi savollarga asosli va sodda javob berish, o‘z tanlovini qisqacha izohlash, mavzu bo‘yicha kichik xulosa chiqarish hamda o‘rganganlarini amaliy va ijodiy faoliyatda mustaqil qo‘llashga ko‘proq imkon beriladi. Rasm, kollaj, applikatsiya, kichik loyiha va jamoaviy kompozitsiyalarni mustaqil bajarish, tayyorlagan ishini guruh oldida qisqacha taqdim etish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Mashg‘ulot davomida barcha bolalardan bir xil natija talab qilinmaydi. Tarbiyachi bolaning yoshiga qarab yordam darajasini belgilaydi va uning mustaqil ishtiroki, fikri hamda ijodiy harakatini rag‘batlantiradi.

Yoshga mos ijodiy topshiriqlar

Izoh: Topshiriqlar bolalarning yosh va imkoniyatiga mos ravishda tanlanadi.

3–4 yosh: bo'yash, yopishtirish, barmoq bo'yog'i.

4–5 yosh: sodda rasm chizish va ranglash.

5–6 yosh: mustaqil rasm va ijodiy kompozitsiya.

Jamoaviy kollaj: "O'zbekiston — bizning katta uyimiz!"

Izoh: Bolalarning individual ishlari birlashtirilib, umumiy kollaj yaratiladi.

Tarbiyachi uchun eslatma: Bolaning yoshi va imkoniyatiga qarab yordam beriladi, quyidagi na'munalardan foydalanishi mumkin ijodiy mustaqilligi rag'batlantiriladi.

Tarbiyachi uchun metodik tavsiyalar

"Kelajak soati" mashg'ulotini tashkil etishda umumiy g'oya va mashg'ulot ketma-ketligi saqlangan holda, topshiriqlar bolalarning yoshi, qiziqishi, tushunish darajasi hamda individual imkoniyatlariga moslashtirilishi tavsiya etiladi.

3–4 yoshli bolalarda ko'proq ko'rgazmalilik, qisqa savollar, takrorlash, harakatli o'yinlar, bo'yash va yopishtirish kabi sodda faoliyatlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

4–5 yoshli bolalarda savol-javob, sodda sabab–oqibat bog'lanishlari, rasm chizish, tanlash va kichik ijodiy topshiriqlar kengaytiriladi.

5–6 yoshli bolalarda mustaqil fikr bildirish, "Nega?", "Qanday?" savollariga javob berish, kasblar va kelajak haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, mustaqil rasm, kollaj va kichik ijodiy ishlarni bajarishga ko'proq imkon beriladi.

6–7 yoshli bolalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini izchil va sodda asoslab berish, muammoli vaziyatlarga yechim topish, "Nima uchun?", "Agar shunday bo'lsa nima bo'ladi?" kabi savollarga javob berish, guruhda hamkorlik qilish, rolli o'yinlar, kichik loyihalar, rasm, kollaj va ijodiy topshiriqlar orqali o'z g'oyalarini mustaqil ifodalashga ko'proq imkon beriladi.

Videokontentlar namoyishidan oldin tarbiyachi bolalarda qiziqish uyg'otishi, namoyishdan keyin esa mazmunni savol-javob, o'yin yoki amaliy mashq orqali albatta mustahkamlashi lozim.

Mashg'ulot davomida barcha bolalardan bir xil natija talab qilinmaydi. Tarbiyachi bolaning yoshiga qarab yordam darajasini belgilaydi va uning mustaqil ishtiroki, fikri hamda ijodiy harakatini rag'batlantiradi.